

*O'zbekiston Respublikasi  
Davlat statistika qo'mitasi*

*Andijon viloyat statistika boshqarmasi*


# Korxonalar va tashkilotlar

**(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 2018 yil yanvar–sentyabr holatiga**

## **RAQAMLAR:**

- **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2394 taga o'sdi**  
2018 yilning yanvar-sentyabr oyida viloyat yilning boshiga nisbatan faoliyat bo'yicha 3162 ta ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2394 ta (9,7 %) yangi tashkil etildi, bu esa g a o'tgan yilning shu davriga o'sgan hamda ularning umumiy nisbatan 1070 taga ko'pdir. soni 27038 tani tashkil etgan.
- **Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi 0,6 f.p. o'sdi**  
Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan asosiy ulushi Andijon shahrida yilning shu davriga (33,3 %), Asaka (9,3%), Andijon nisbatan 28,7 % ga (6,7 %) va Shahrixon (6,5 %) kamaygan hamda ularning tumanlarida kuzatilmoqda.
- **Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni 2389 taga oshgan.**  
soni 773 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




## Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktyabr holatiga)


|                         | Ro'yxatdan o'tgan |                   | Faoliyat ko'rsatayotgan |                   |
|-------------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
|                         | birlik            | jamiga nisbatan % | birlik                  | jamiga nisbatan % |
| <b>Andijon viloyati</b> | <b>28497</b>      | <b>100,0</b>      | <b>27038</b>            | <b>100,0</b>      |
| Oltinko'l               | 1569              | 5,5               | 1402                    | 5,2               |
| Andijon                 | 1987              | 7,0               | 1815                    | 6,7               |
| Baliqchi                | 1465              | 5,1               | 1412                    | 5,2               |
| Bo'z                    | 690               | 2,4               | 684                     | 2,5               |
| Buloqboshi              | 711               | 2,5               | 699                     | 2,6               |
| Jalaquduq               | 1100              | 3,8               | 1066                    | 4,0               |
| Izboskan                | 1278              | 4,5               | 1238                    | 4,6               |
| Ulug'nor                | 558               | 1,9               | 554                     | 2,0               |
| Qo'rg'ontepa            | 1556              | 5,5               | 1331                    | 4,9               |
| Asaka                   | 2557              | 9,0               | 2520                    | 9,3               |
| Marxamat                | 1262              | 4,4               | 1228                    | 4,6               |
| Shahrixon               | 2011              | 7,1               | 1759                    | 6,5               |
| Paxtaobod               | 975               | 3,4               | 941                     | 3,5               |
| Xo'jaobod               | 957               | 3,4               | 944                     | 3,5               |
| Andijon sh.             | 9375              | 32,9              | 9006                    | 33,3              |
| Xonobod sh.             | 446               | 1,6               | 439                     | 1,6               |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan **25,2 %** savdoda, **20,0 %** sanoatda, **8,7 %** qurulishda, **6,9 %** qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, **4,7 %** yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, **3,8 %** tashish va saqlash, **1,9 %** axborot va aloqa, **2,3 %** sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va **26,4 %** boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**






2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 3162 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 51,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Andijon shahrida (881 ta), Asaka (272 ta), Andijon (201 ta), Shahrihon (198 ta) va Oltinko'l (187 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (81 ta) tumanida, Honabod shahrida (85 ta), Buloqboshi (96 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi boshqa turlarda (772 ta), sanoatda (681 ta), savdoda (637 ta), qurilishda (358 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (219 ta) hamda tashish va saqlashda (172 ta ) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (55 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (124 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (144 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

|                                                    | 2017 yil<br>yanvar-<br>sentyabr<br>holatiga. | 2018 yil<br>yanvar-<br>sentyabr<br>holatiga. |
|----------------------------------------------------|----------------------------------------------|----------------------------------------------|
| <b>Jami:</b>                                       | <b>2092</b>                                  | <b>3162</b>                                  |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                 | 196                                          | 219                                          |
| Sanoat                                             | 627                                          | 681                                          |
| Qurilish                                           | 195                                          | 358                                          |
| Savdo                                              | 481                                          | 637                                          |
| Tashish va saqlash                                 | 101                                          | 172                                          |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 94                                           | 124                                          |
| Axborot va aloqa                                   | 43                                           | 55                                           |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 55                                           | 144                                          |
| Boshqa turlari                                     | 300                                          | 772                                          |



## **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni** (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 oktyabr holatiga 22422 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6111 ta, oilaviy korxonalar – 553 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15133 ta va boshqalar 625 tani tashkil etadi.



## **Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 201 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga yoki 20,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 116 tasi qo'shma korxonalar, 85 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 88 ta (43,7 %), Andijon tumani 16 ta (8,0 %), Shahrixon tumani 16 ta (8,0 %) va Asaka tumanlari 12 ta (6,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bo'z tumani 1 ta (0,5 %), Ulug'nor tumani 2 ta (1,0 %), va Paxtaobod tumani 4 ta (2,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 145 ta (72,1 %) va savdoda 18 ta (8,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (0,5 %), tashish va saqlashda 2 ta (1,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 ta (3,5 %), qurilishda 7 ta (3,5 %), boshqa faoliyat turlarida 10 ta (5,0 %) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 11 ta (5,5 %) tashkil qilgan. Shu bilan birga axborot va aloqa faoliyat turlarida esa tashkil qilinmagan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da






2018 yilning yanvar-sentyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 31 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan yoki 1,3 baravarga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi - 8 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 7 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 4 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 3 ta, Pokiston Islom Respublikasi - 3 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston Respublikasi - 1 ta, Belarusiya Respublikasi - 1 ta, Hindiston Respublikasi - 1 ta va Afg'aniston Respublikasi - 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-sentyabr holatiga) birlikda**





Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 14 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 6 ta, savdoda 5 ta, tashish va saqlashda 2 ta hamda boshqa turlarda 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, birlikda**






## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 22292 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 3,2 % ga ko'paygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 7959 tasi (35,7 %) Andijon shahriga, 2135 tasi (9,6 %) Asaka, 1532 tasi (6,9 %) Andijon hamda 1411 tasi (6,3 foiz) Shahrixon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22292 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 6781 tasi (30,4 %) – savdoda, 5369 tasi (24,1 %) - sanoatda, 2631 tasi (11,8 %) - boshqa faoliyat turlari, 2347 tasi (10,5 %) - qurilishda, 1820 tasi (8,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1268 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1019 tasi (4,6 %) - tashish va saqlashda, 544 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda shuningdek, 513 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasiga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi

### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**




2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 2597 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 32,3 % ga ko'pdir.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (782 ta), Asaka (230 ta), Andijon (181 ta), Oltinko'l (155 ta) va Shahrixon tumanlarida (158 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (55 ta), Buloqboshi (70 ta) hamda Bo'z (76 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (681 ta), savdoda (636 ta) va qurilishda (358 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (55 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida (124 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (142 ta) tashkil etilgan.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 583 tani tashkil etib, ulardan 553 tasi yoki 94,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **17,2** %ga oshganligini ta'kidlash lozim

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda oilaviy korxonalarning 43,9 % yoki 243 tasi sanoat, 23,7 % yoki 131 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,2 % yoki 62 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,8 % yoki 54 tasi savdo, 7,4 % yoki 41 tasi boshqa faoliyat turlar, 1,1 % yoki 6 tasi qurilish, 1,7 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 0,5 % yoki 3 tasi tashish va saqlash hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrarni yuritish bo'limi**



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan**

**Nashr uchun mas'ul: Z.Sidikov**